

UDK: 372.3:371.3

PEDAGOGIKA TARIXINI O'QITISH JARAYONIDA TALABALARDA ANALITIK FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Nuritdinova Marjona Isog'ali qizi

Namangan davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada pedagogika tarixini o'qitish jarayonida talabalar tafakkur faoliyatining muhim shakli bo'lgan analitik fikrlashni rivojlantirish masalalari yoritilgan. Muallif muammoli o'qitish, tahliliy savollar, matn ustida ishlash va munozarali usullar asosida metodik tavsiyalar ishlab chiqqan. Eksperimental tajriba natijalari asosida taklif etilgan yondashuvlar talabalarning tahlil qilish, baholash va xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekani aniqlangan.

Kalit so'zlar: analitik fikrlash, pedagogika tarixi, muammoli ta'lim, metodika, talaba faoliyati.

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ АНАЛИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ПРЕПОДАВАНИЯ ИСТОРИИ ПЕДАГОГИКИ

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы развития аналитического мышления, являющегося важной формой мыслительной деятельности учащихся, в процессе обучения истории педагогики. Автором разработаны методические рекомендации, основанные на проблемном обучении, аналитических вопросах, работе над текстом, методах дискуссии. На основании результатов экспериментальных экспериментов установлено, что предложенные подходы обладают высокой эффективностью в формировании у учащихся умений анализировать, оценивать и делать выводы.

Ключевые слова: аналитическое мышление, история педагогики, проблемное обучение, методика, активность учащихся.

METHODOLOGY FOR DEVELOPING ANALYTICAL THINKING IN STUDENTS IN THE PROCESS OF TEACHING HISTORY OF PEDAGOGY

Annotation: This article discusses the issues of developing analytical thinking, which is an important form of students' thinking activity, in the process of teaching the history of pedagogy. The author has developed methodological recommendations based on problem-based teaching, analytical questions, work on the text, and discussion methods. Based on the results of experimental experiments, it was found that the proposed approaches are highly effective in developing students' skills in analyzing, evaluating, and drawing conclusions.

Key words: analytical thinking, history of pedagogy, problem-based teaching, methodology, student activity.

KIRISH

Hozirgi davrda ta'lim jarayonining asosiy vazifalaridan biri – talabalarda chuqur fikrlash, tahliliy yondashuv va tanqidiy mulohaza yuritish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Ayniqsa, pedagogika tarixini o'qitishda bu maqsad dolzarb ahamiyat kasb etadi. Sababi, pedagogika fanining tarixiy taraqqiyotini o'rganish nafaqat nazariy bilimlarni egallash, balki ularni tahlil qilish, solishtirish va baholash orqali talabaning fikrlash faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy ta'lim tizimi talabalarning mustaqil fikrlashi, muammoni tahlil qila olishi, asosli xulosa chiqarishi kabi kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan. Pedagogika tarixining o'rganilishi nafaqat tarixiy tafakkurni shakllantirish, balki bugungi ta'lim muammolarini anglashda tarixiy tajribani tahlil qilishga asos yaratadi. V.V. Davydov ta'kidlaganidek, "analitik fikrlash — bu o'quvchining bilimni egallash emas, balki uni yangidan qayta kashf etish orqali rivojlanishidir". [2, 45-b.].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Pedagogika tarixini o'rganishda analitik fikrlashni rivojlantirish uchun quyidagi metodik yondashuvlar muhim hisoblanadi:

«Insert» metodi

O'quvchi matn bilan ishlayotganda bir qator belgilarni qo'yib boradi, ular esa quyidagi ma'nolarni bildiradi:

V - bilganlarimni tasdiqlaydi

+ - yangi axborot

- - bilganlarimga zid keladi

? - meni o'ylantirib qo'ydi.

Mavzu: CHO'L

Cho'llar – havo harorati yozda juda issiq, qishda juda sovuq bo'ladigan, yog'in kam yog'adigan, o'ziga xos o'simlik va hayvonot dunyosiga ega qurg'oqchil joylar. Cho'llarning ayrim yerlari bahorda yashil tusga kiradi. Yomg'irli mavsumda chuqurliklarda suv to'planib, ko'lmaklar hosil bo'ladi. Ko'lmaklar atrofida o'simliklar qalin o'sadi. Yozning jazirama kunlarida ko'lmaklar qurib, taqirlar hosil bo'ladi. Cho'llar ba'zi tirik organizmlar uchun yashash joyidir. Cho'llarda saksovul, isiriq, yantoq va yulg'un o'sadi. Sudralib yuruvchilar,

sutemizuvchilar va qushlar yashaydi. Yurtimizdagi cho'llarning sug'orib, obod qilingan qismlarida odamlar yashaydi. Cho'llardan ko'pincha chorva mollarini boqishda foydalaniladi. Tibbiyotda cho'l o'simliklari – isiriq va yantoqdan ko'p foydalaniladi.

V - havo harorati yozda juda issiq, qishda juda sovuq bo'ladigan

+ - Yozning jazirama kunlarida ko'lmaklar qurib, taqirlar hosil bo'ladi

- - yog'in kam yog'adigan

? - Sudralib yuruvchilar, sutemizuvchilar va qushlar yashaydi

"Baliq skeleti metodi" — muammolarni tahlil qilish va ularning asosiy sabablarini aniqlashda ishlatiladigan grafik metoddir. Bu metod ta'lim jarayonida muammoli vaziyatlarni tahlil qilishda keng qo'llaniladi. Hamda talabalarni mantiqiy fikrlashga va mustaqil qaror qabul qilishga yo'naltiradi. Ushbu metodning asosiy maqsadi esa muammoni shunchaki emas, balki asl sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etish choralarini ko'rishga undaydi. Ushbu metodning mohiyati shundaki, diagramma baliq skeletiga o'xshatilgan:

"Bosh qismi" — yechilishi kerak bo'lgan muammo.

"Umurtqa (asosiy chiziq)" — sabablarni tahlil qilish yo'nalishi.

"Yon chiziqlar" — muammoga olib keluvchi omillar (asosiy sabablar).

Har bir asosiy sabab o'z navbatida kichik omillarga bo'linadi (ikkinchi darajali sabablar).

SWOT tahlili — bu tahliliy metod bo'lib, vaziyatning ichki va tashqi holatini baholashga yordam beradi. U o'quv jarayonini rejalashtirish, muammoni tahlil qilish, strategiya tuzish va qarorlar qabul qilishda keng qo'llaniladi.

“Plyus va minus tomonlari” o'yini

O'yinning maqsadi: o'quvchilarni bir-birlariga bo'lgan ijtimoiy harakatlarini aniqlash, shuningdek, ijobiy va salbiy fikrlashga o'rgatish.

Yoz mavzusida har bir o'quvchi 3ta ijobiy va 3ta salbiy fikrlarni aytadilar

IJOBIY

1.Yoz – yilning eng issiq fasli.

2. Bu faslda juda ko'p mevalar pishadi.

3.Yoz kelishi bilan ta'til boshlanib, bolalar oromgohlarga boradilar.

SALBIY

1. Yozda hamma yer juda ham isib ketadi.
2. Ko'p bolalar cho'milaman deb cho'kib ketadi.
3. Kun uzun tun qisqa bo'ladi ertalab uyquga to'yish juda qiyin bo'ladi.

SWOT so'zi qisqartma so'z bo'lib quyidagicha ifodalaniladi:

- S – Kuchli tomonlar
- W – Zaif tomonlar
- O – Imkoniyatlar
- T – Tahdidlar, xavf-xatarlar.

Ushbu metodning maqsadi ichki va tashqi omillarni aniqlash orqali dars, loyiha, guruh ishini samarali ishlab chiqishga yordam beradi.

Mavzu: Suvdagi hayot

S-kuchli tomoni O'simliklarni ko'payishi, Suvning inson hayotidagi ahamiyati juda katta. Suv barcha tirik organizmlar uchun hayot manbaidir.	O-imkoniyat Suvda tirik organizmlar yashashi, suvda hayot borligi, Suvni atrof muhitga juda zarurligi
W-kuchsiz tomoni O'stirilgan daraxtlarni kesish, Suvdan noo'qin foydalanish, suvga chiqindilarni tashlash	T-to'siqlar Sho'r suvni istemol suvdan ortiqligi. Juda ko'p axoli yashaydigan joylarda istemol suvini yetarli emasligi

Suqrot metodi— bu qadimgi yunon faylasufi Sokrat tomonidan ishlab chiqilgan va hozirgi pedagogikada tanqidiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun keng qo'llaniladigan metodlardan biridir. Uni ba'zida Suhbat metodi yoki Elenxus deb ham nomlanadi. Ushbu metodning maqsadi insonga tayyor bilim berish emas, balki savol-javoblar orqali haqiqatni izlab topishga xizmat qiladi. Hamda o'z fikriga shubha uyg'otish, uni mustaqil fikrlashga undaydi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Analitik fikrlash – bu voqelikni chuqur tahlil qilish, mavjud dalillarni solishtirish, muammolarning sabab-oqibat aloqalarini aniqlash, xulosa chiqarish

qobiliyatidir. Pedagogika tarixini o'qitish jarayonida analitik fikrlashni rivojlantirish uchun muammoli vaziyatlar asosida interfaol metodlardan foydalanish o'quv jarayonining sifat ko'rsatkichlarini oshirishga xizmat qiladi. Bunday yondashuv nafaqat bilim berish, balki talabaning intellektual salohiyatini ochishga yo'naltirilgan.

A.N. Suxomlinskiy qayd etadi: "Ta'lim shunchaki bilim emas, balki fikr yuritish, farqlash, tahlil qilish, xulosa chiqarish qobiliyatini tarbiyalashi lozim" [5, 128-b.]. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, tarixiy faktlar, pedagogik meros vakillarining qarashlari, ta'lim tarixidagi muammolarni zamonaviy nuqtai nazardan tahlil qilish orqali talabaning chuqur tafakkur darajasini shakllantirish mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, pedagogika tarixini o'qitishda analitik fikrlashni rivojlantirish – bu faqatgina nazariy bilimlarni berish emas, balki talabaning mustaqil fikrlash, tarixiy ma'lumotlarni baholash, mantiqiy xulosa chiqarish qobiliyatini takomillashtirishga qaratilgan murakkab jarayondir. Ushbu metodika ta'lim sifatini oshirishda, raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashda muhim o'rin tutadi. Pedagogika tarixini o'qitishda analitik fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlar o'zini oqlamoqda. Bu metodika talabalarni tarixiy-pedagogik jarayonlarga chuqur tahliliy munosabatda bo'lishga, fikrni asoslab bayon qilishga va ilmiy nuqtai nazardan qaror qabul qilishga o'rgatadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Aripov E., Raximov B. Pedagogika: O'quv qo'llanma. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. — 320 b.
2. Давыдов В. В. Проблемы развивающего обучения: Опыт теоретического и экспериментального психологического исследования. — М.: Педагогика, 1986. — 240 с.
3. Nurmuxamedova N. Pedagogik texnologiyalar asoslari. — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, 2018. — 198 b.
4. Nuraliyeva, K. I. (2021). BOSHLANGICH SINIF OQUVCHILARINING KREATIV SALOHIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(6), 208-214.
5. Сухомлинский В. А. Сердце отдаю детям. — М.: Просвещение, 1976.